

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
KASB TA'LIMI FAKULTETI
“KASB TA'LIM METODIKASI” KAFEDRASI
KASB TA'LIM METODIKASI FANIDAN

KURS ISHI

Mavzu: Kasb-hunar ta'limida qo'llaniladigan dars va mashg'ulotlar shakllari, metodlari.

Bajardi: 302 KGD guruh

talabasi Xolmatova U. T

Rahbar: Mamatov. D

Toshkent – 2016

MUNDARIJA

Kirish.

1. Kasb-hunar kollejlari ta'limida qo'llaniladigan shakl va metodlar mohiyati.
2. Kasb-hunar kollejlari "Kompyuter grafikasi haqida ma'lumot va kompyuter grafikasi turlari" mavzusida dars ishlanma.
3. Kasb-hunar kollejlari ta'limida qo'llaniladigan dars va mashg'ulotlarni o'qitish tizimida texnologiyalardan foydalanish.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Lug'at.

Kirish

Hozirgi kunda sanoati va intellektual salohiyati rivojlangan mamlakatlar o`rtasidagi iqtisodiy musobaqa fan, texnika va texnologiyalar sohasiga, natijada ta`lim sohasidagi musobaqaga aylanib bormoqda.

O`zbekiston ta`lim tizimini isloh qilishning dasturiy hujjatlarida - respublikada ta`lim raqobat bardosh kadrlarni ilgarilab tayyorlashni ta`minlash darajasiga yetishi kerak - degan maqsad qo`yilgan. Yoshlarning yangi avlodi istiqbol masalalarni qo`yish va echish, fikr yuritishning yuksak madaniyati, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotda mustaqil yo`l topa olish qobiliyatiga ega bo`lishi kerak.

Shunday qilib, ta`lim tizimining yangilanishi va rivojlanishi jahon hamjamiyatiga integratsiya kuchayayotgan sharoitda jamiyat va mamlakatning rivojlanishi o`zaro bog`langan va o`zaro asoslangan yagona jarayonning elementlaridir.

Respublikamizdagi Oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda bugungi kunda komp'yuter texnologiyalari va butun jahon axborot tarmog`i bo`lgan - Internetni o`quv jarayoniga tadbiq etishni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning huquqiy asoslari Prezidentimizning "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida"¹ gi farmonida, Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23 maydagi "2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, Internetning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta`minlash"² xaqidagi dasturlarida ko`rsatib o`tilgan. Mamlakatimizdagi Oliy o`quv yurtlari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning zamonaviy texnika vositalari va komp'yuterlar bilan ta`minlanishi davom etayotgan bo`lsada, ulardan foydalanish va foydalanuvchilarning imkoniyat darajalarini ko`tarishni davr talabi taqozo etmoqda.

Bu esa kurs ishi mavzusini dolzarbligini anglatadi.

¹ President farmoni

² Vazirlar Mahkamasini qarori

Ishning maqsadi va vazifalari. Kurs ishining maqsadi kasb-hunar kollejlarda ta'limida qo'llaniladigan dars va mashg'ulotlar shakllari, metodlarini alosiy mohiyati va kasb-hunar kollejlarda olib borilayotgan o'qitish tizimini amaliy o'rganish.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, kurs ishida quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- Kasbiy talimining shakllanishi va rivojlanish tarixi;
- Kasb-hunar kollejlarda ta'limida qo'llaniladigan shakl va metodlar mohiyati;
- Kasb-hunar kollejlarda “Kompyuter grafikasi haqida ma'lumot va kompyuter grafikasi turlari” mavzusida dars ishlanma.
- Kasb-hunar kollejlari ta'limida qo'llaniladigan dars va mashg'ulotlarni o'qitish tizimida texnologiyalardan foydalanish.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga tatigulik mazmun va samara kasb etmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimiz Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarorida ta'kidlanganidek, yurtimizda «demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiyotimizni bozor munosabatlariga o'tkazish va rivojlangan davlatlar qatoridan munosib joy olish yo'lida erishgan marralarimiz jahon ahlini haqli ravishda hayratda qoldirmoqda»³.

Haqiqatan ham, bundan 24 yil oldin xalqimiz o'zining mard va donishmand rahbari boshchiligida mustaqillikka erishdi. Bu mustaqillik mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayot va milliy ma'naviyat sohalarida yangi bir davrni boshlab berdi.

U ta'lim tizimini rivojlantirish sohasida ham tub buyuk islohotlarga yo'l ochdi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda yagona mafkura hukmronligi ostidagi pedagogik tizim sharoitida yashadik, faoliyatimizni sobiq markazdan yuborilgan

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 6 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarori // Xalq so'zi, 2011 yil 7 aprely, №68 (5235).

tavsiyalar asosida tashkil etdik. Natijada shaxs manfaatlari va ularning ma'naviy ehtiyojlari maktab devorlari ortida qoldi. Amalda maktab bitta yo'nalishga - kommunistik mafkurani mustahkamlashga xizmat qildi. Pedagogik ijod, ona tili va Vatan tarixi, geografiyasi, tabiati, milliy urf-odatlarini, an'analar, ma'naviyat va qadriyatlarni o'z o'quvchilariga o'rgatishdan deyarli mahrum etilgan o'qituvchi unga buyurilganlarnigina o'rgatuvchiga aylandi. Ta'lim-tarbiya ishlarining 70 yil davomida shakllanib qolgan ana shu illatlardan xalos qilish ta'limdagi islohotlarning tub mohiyatini tashkil qildi.

Ma'lumki 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilindi va 1-sentiyabr O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi kuni qilib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni:

- «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni joriy etish (1992 yil, 1997 yil);
- yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni;
- o'quv yurtlarini atgestasiyadan o'tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni takozo etdi.

Kasb-hunar ta'limni yo'lga qo'yishni takomillashtirish kasb-hunar ta'limi rivojlanishining barcha bosqichlarida asosiy maqsad qilib qo'yilgan va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun bir qator vazifalar belgilangan.

- yosh ishchilar sinfni tayyorlashning istiqbol shakli sifatida qaralgan va yoshlarni kasbiy daraja va umumiy o'rta ta'lim bo'yicha bilim bilan ta'minlovchi o'rta XTBYU larini kengaytirish va mustahkamlash;
- o'rta umumta'lim maktablarini tugatgan yoshlarga ishchi malakasini beruvchi texnik bilim yurtlarini rivojlantirish;
- kasbiy ta'lim tizimida ularning rolini oshirish;
- ko'plab kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlovchi XTBYU larining ishini yaxshilash.

O'tgan asrning 80-90 yillarda hunar bilim yurtlarini tugatgan o'quvchilar kelib ishlaydigan o'quv ustaxonalari, o'quv joylari va ishlab chiqarish amaliyotiga ega bo'lgan hududlar muxim ahamiyat kasb eta bordi. Nazariy ta'lim berishni tashkil qilishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogika va psixologiyaning ilg'or g'oyalari vujudga kela boshladi.

Kasb-hunar ta'limi jarayonida bu g'oyalardan, amaliy-labaratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishning texnik vasitalari, dasturlashtirilgan ta'lim va boshqa ta'lim vasitalaridan foydalanila boshlandi. Shu jihati bilan bu bosqich kasb-hunar ta'limi rivojlanishining barcha bosqichlari orasida alohida o'rin tutadi.

O'quvchilarni kasbga tayyorlash, mehnat, aqliy, ahloqiy va jismoniy tarbiya ishlari darsdan tashqari ishlar bilan birga qo'shib olib borildi. O'quv yurtlarida turli xil to'garaklar - texnik ijodkorlik to'garaklari, badiiy xavaskorlik, sport to'garaklari va boshqalar keng faoliyat yurita boshladi. O'quvchilarning umumiy ta'limi, g'oyaviy - siyosiy va kasbiy tayyorgarligi, ta'limni ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lab olib boorish - bularning biri oxir - oqibat yoshlarning ma'lum bir kasbni tanlashiga qaratilgan edi.

O'zbekistonda kasb ta'limini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta'lim va tarbiyaning milliy shakllarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Keyingi yillarda respublikamizda ochilgan lisey, gimnaziyalarda va ayrim umumiy maktablarda tashkil etilgan pedagogikadan ixtisoslashtirilgan kurslarda Vatan tarixi va madaniyatini, o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda pedagogikadan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida darslik, qo'llanmalar yaratishga kirishildi. Bu ishda o'quvchi va talabalar hamda bo'lg'usi o'qituvchilarning umumiy madaniyati va ma'naviyatini, pedagogik bilim va pedagogik madaniyatini, pedagogik tafakkurini o'stirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Bu maqsad pedagogik fikrlashga doir bilim va diniy-axloqiy, tarbiyaviy g'oyalar umumbashariy va milliy madaniy qadriyatlarni puxta o'rganish bilan amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Ushbu kurs ishida quydagi adabiyotdan foydalanilgan va uni mazmun, mohiyati tahlili quydagicha yoritilgan.

“Kasb ta’lim metodikasi” fanidan o’quv qollanmasi muallif prof. Muslimova N.A, dost. Qo’ysinov O.A, dots. Sharipov Sh. S. va M. U. Dexqonovaning “Kasb ta’limi metodikasi”dan o’quv qollanmasidan foydalandim va o’z kurs ishida quydagi malumotlardan foydalandim. Bu manbalardan Kasb ta’limida yangicha o’qitish tizimlaridan foydalanish, yangicha texnologik qurilmalardan yani proektor, magitafon, mikrafon, kompyuter, elektron doska hamda ko’rgazmali qurilmalar yani plakat, turli ko’rinishdagi fanga oid rasmlar, tarqatma detaktiv vositalar, maket, o’quv dasturi, diagrammalardan oqilana foydalanish ko’rsatiladi.

Kasb-hunar kollejlari o’qituvchilarning dars berishda o’quvchilarga qayd darajada bilim berishayotganlari va fan bo’yicha o’quv qollanmalar, ishchi dasturlar va o’quvchilarni darsga qiziqitira olishi, qanday shakl va metodlardan foydalanishi to’g’risida malumotlar berilgan.

Shu bilan bir qatorda Kasb-hunar kollej o’quvchilari ham darsga o’z vaqtda kelishi, kollej qonun qoidalariga bo’ysunishi, dars jarayonida faol qatnashishi, Prezidentimiz tomonidan yoshlarga shu bilan birga kollej o’quvchilariga berilgan katta imkoniyatlar, kollej o’quvchilari amaliyot o’tash jarayoniga faol bo’lishlari va o’qituvchilar bularni nazorat qilishlari, kollej bitiruvchilari uchun prezident farmoniga asosan tarbbirkorlik bilan shug’ullanuvchi yoshlar uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi va kollej bitiruvchilarini ish bilan taminlashda kerakli bo’ladigan hujjatlar va maslahatlar batafsil bayon etilgan, shu o’rinda yana bir adabiyot foydalanganman u o’zimni yonalishim bo’yicha “Informatika” fanidan o’quv qollanmadan muallif dots Samanov O. B va Berqoziyev D. R ushbu manbadan o’zimga tegish malumotlarni oldim.

Bu manbada informatika faniga kirish, kompyuter va windows dasturini ishga tushirish, ta’lim sohasida kompyuterdan oqilona foydalanish, hozirgi global zamonda internet oqimiga aralashmasdan undan to’g’ri va kerakli foydalanish,

kasb-hunar kollejlari uchun informatika fanini ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berilgan.

1. Kasb-hunar kollejlarda ta'limida qo'llaniladigan shakl va metodlar mohiyati.

Yevropa olimlarining asarlarida kasbiy ta'limi. Buyuk chex pedagogi Ya. A. Komenskiy «Kishilik jamiyati ishlarini yaxshilash haqida hammaga talluqli maslahat» nomli 7 jildli katta asar yozdi (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo'lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jildlari esa faqat 1935 yilda topildi va Chexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarida «Hammani va hamma narsada har tomonlama tuzatish»ning insonparvarlik va demokratik dasturini belgilab chiqdi va kishilik jamiyatini isloh qilish rejasini ilgari surdi.

«Buyuk didaktika» asarida «**pan sofiya g'oyasini**» (*pan* gerokcha — butun, hamma, *sofiya* — donolik, aqllilik) **hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish**» demakdir. Pan sofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig'indisini beradi.

Maktab — bu muassasa, u erda «Hammani har narsaga o'rgatmoq kerak» degan fikr ko'p marta takrorlanishini ko'ramiz.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko'rsatadi. Tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

1. Aqliy tarbiya.

2. Axloqiy tarbiya.

3. Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning tug'ilganidan to 24 yoshigacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to'rt maktabni o'qib tugatishi, har birida 6 yil o'qishi kerak, deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiyning pedagogika nazariyasi xalqchillik g'oyasi asosida qurilganidir. «Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi - deb aytgan edi u, - xalqning rivojlanish sharoitlari, uning ehtiyoj va talablari bilan belgilangan».

«Hamma uchun umumiy bo'lgan birgina tug'ma moyillik borki, tarbiya hamisha shunga tayanishi mumkin; bu biz xalqchilik deb atagan narsadir. Xalqning o'zi tomonidan yaratilgan va xalqchilik asosiga qurilgan tarbiya shunday tarbiyaviy kuchga egaki, bunday kuch abstrakt g'oyalarga asoslangan yoki boshqa xalqlardan olingan eng yaxshi tizimlarda ham yo'qdir».

Ushinskiy xalqchilik deb har bir xalqning o'ziga xosligini tushunar ediki, bu o'ziga xoslik o'sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo'lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

Uning fikricha «agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo'lsa, uni baxt uchun tarbiyalamaslik kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim». Tarbiya kishida mehnatga muhabbat va odatni o'stirish kerak. Ushinskiy kishi o'z faoliyatida jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatni birlashtirsa, juda foydali bo'lur edi, deb hisoblaydi. U o'quvchilar mehnati haqida gapirib, «O'qish mehnatdir va mehnat bo'lib qolishi, ammo to'la ma'noli mehnat bo'lishi lozim», — deydi.

O'rta Osiyo hududida kasbiy ta'lim tizimi, O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida. Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da ham kasb-hunar ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda: «tarbiya xayotining eng muxim tirtgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avval yaxshi o'qishni, keyin esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin» deyilgan.

Imom al-Buxoriyning tarbiya xaqidagi qarashlarida jaxolat kishiga o'lim keltiruvchi fojea sifatida qoralanadi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga da'vat etib, munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytgan Imom al-Buxoriyning ta'lim-tarbiya xususidagi ta'limotida axloqiy qarashlar muxim o'rin tutadi.

Yoshlarimizni tarbiyalash ularga kasb-hunar o'rgatish uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining duru-javhariga teng ma'naviy meroslari misol bo'la oladi. Abu Nasr Farobiy, Axmad YAssaviy, Baxouddin Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Firdavsiy,

Amir Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql egalarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'rsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Farobiy nomi bilan bog'liq bo'lib uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faylasufi Arastotel keyin SHarkda o'z bilimi, fikr dorasining kengligi bilan nom chiqargan yirik mutafakkir Farobiyning «muallim ussoniy» («ikkinchi muallim») deb ataydilar. Farobiy o'z asarlarida ta'lim-tarbiyaning muximligi, o'qituvchi kasb-hunar i, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'limtarbiya berish usullari haqida fikr yuritadi.

Kasbiy ta'lim rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari. O'rta Osiyoda, (Shu davrda O'zbekiston ham O'rta Osiyo deb yuritilgan) 1905 yildan so'ng yangi usul maktablari deb atalgan maktablar ko'paydi. Yangi usul yoki jaded maktablarni deb nomlangan bu maktablar eski usul maktablardan butunlay fark qilar edi.

Keyinchalik Gimnaziya, kadet korpusi, muallimlar tayyorlaydigan seminariya, realniy bilim yurtlari va tijorat maktablarining ochilishi O'rta Osiyo shaharlarida va viloyat markazlarida ta'limni rivojlantirish yo'lida qo'yilgan navbatdagi qadam bo'ldi.

Biroq, bunday o'quv yurtlarida mahalliy millatlarning bolalari juda kam o'qir edi. Birinchi marta bunday o'quv yurtlari Toshkentda ochildi, bundan tashqari, Toshkentda maxsus maktablar – Toshkent qishloq xo'jalik maktabi va gidrotexnika maktabi ham bor edi. Samarqandda bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik maktabi ochildi. O'lka iqtisodiyotini rivojlantirish uchun bu maktablarning ahamiyati juda katta bo'ldi. Bu davrda Turkiston o'lkasida mehnatkash xalq uchun oliy o'quv yurtlari yo'q edi.

Ikkinchi bosqichning dastlabki yillaridayoq xukumat qarorlarida hunar-texnika ta'limiga qo'yiladigan asosiy talablar belgilab berilgan edi. Bu talablar quyidagilar edi:

- hunar-texnika ta'limining asosli bo'lishi mayda hunarmandchilik harakteriga ega bo'lmasligi;
- umumiy va texnikaviy bilimlarga asoslanishi;
- ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob berishi;
- ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'lab yoshlarning jamiyat qurilishi
- ishida ishtirok etishiga asoslanishi lozimligi.

Hunar-texnika (kasb) talimi muhim omillaridan biri sanoat korxonolari va muassasalarida ishlayotgan, 15 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlarga majburiy ta'limning joriy etilganligi edi. Usmirlar haftada olti marta ikki soatdan mashg'ulotga qatnashishlari lozim edi. 1917 yil 29 oktyabrda hukumat 8 soatlik ish kuni haqida dekret chiqardi. 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun 6 soatlik ish kuni beltilanib, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning mehnat qilishi taqiqlangan edi.

To'rtinchi bosqichda hunar-texnika kurslari malakali ishchi-kadrlar tayyorlashning eng ko'p tarqalgan formalaridan biri edi. Ular o'zlarining vazifalari, o'qish muddati, tuzilish shakllari va boshqalariga ko'ra farqlanardi. Ularni quidagi uch tipga bo'linardi:

- sanoatning u yoki bu aniq turi uchun shu sohada ishlamaydigan kishilardan transport uchun tayyorlov kurslari;
- ish tajribasiga ega bo'lsa-da, o'z bilim va malakasini oshirish istagi bo'lgan kishilar uchun malaka oshirish kurslari;
- ustalar, ishboshilar tayyorlash bo'yicha ((biror maqsadga qaratilgan) uzoq muddatli kurslarga ajratish mumkin.

Beshinchi bosqichda o'rta ta'limning rivojlanishi munosabati bilan mehnat rezervlari sistemasida o'rta maktabni tugatgan yoshlar uchun bir va ikki yillik. texnika bilim yurtlari barpo etildi. Bilim yurtlarida yuqori umumta'lim saviyasini talab qiladigan kasblar bo'yicha malakali ishchilar va kichik texnik xodimlar tayyorlanar edi. 1941-1958 yillar mobaynida mehnat rezervlariga qarashli o'quv yurtlari 10245 ming, shu jumladan sanoat uchun 5489 ming, qurilish uchun 1220

ming qishloq xo'jaligi uchun 1655 ming va xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun 1881 ming malakali yosh ishchilar tayyorlab berdi.

Ettinchi bosqichda o'rta hunar-texnika va texnika bilim yurtlariga o'quvchilar qabul qilish 2 baravardan ziyod ko'paytirildi. Hunar-texnika ta'limi tizimida taxminan 11 million malakali ishchi tayyorlandi. Hunar-texnika bilim yurtlarida o'rta ma'lumotli ishchilar tayyorlash 2,5 baravar ko'paytirildi. 1,1—1,2 million o'rinli hunar-texnika bilim yurtlari, shuningdek, o'quvchilar uchun zarur miqdorda yotoqxonalar foydalanish uchun topshirildi.

Hunar-texnika bilim yurtlarini tugatgan va o'rta ma'lumot olgan o'quvchilar ishchilar sinfiniig munosib o'rinbosarlariga aylangan edi.

Hunar-texnika ta'limi tizimi o'quv yurtlarini birinchi kosmonavt YU. A. Gagarin, kosmik kemalarning mashhur ixtkrochisi S. P. Korolyov, kosmonavt-uchuvchi P. R. Popovich, aviasiya marshali A. I. Pokrishkin kabi ko'plab taniqli arboblari bitirib chiqqanlar. 1984 yil —Umumta'lim maktablarini isloh qilish to'g'risidagi xukumat qarori bilan umumta'lim maktablari isloh qilindi, umumta'lim maktablari 10 yillikdan 11 yillikka o'tkazildi. SHundan so'ng umumta'lim maktablarining IX - XI – sinflarida o'quvchilarning haftada bir kun 6 soat maktablararo o'quv ishlab-chiqarish kombinatlarida bevosita tanlagan kasblari bo'yicha ta'lim olishi yo'lga qo'yildi.

Mamlakat xalq xo'jaligi uchun malakali ishchi – mutaxassislar tayyorlashda hunar-texnika ta'limi tizimii o'quv yurtlari bilan bir qatorda maktablararo o'quv ishlab chiqarish kombinatlari (UPK) lar katta o'rin tutdi.

Kasb-hunar kollej o'quvchilarining o'quv va ishlab chiqarish faoliyati turli tashkiliy shakllarda kechadi. Kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari deganda o'quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun o'quvchilar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek o'quv mashg'ulotlarining qurilish tarkibi tushuniladi.

Kasb-hunar ta'limini u yoki bu shaklini tanlashda, o'quvchilarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va

yaqin vazifalari, mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko'rsatkich)larini u yoki bu shakllariga bog'liq.

Nazariy mashg'ulotlar davomida dastur mavzularining mazmuni yoritiladi, kasbiy ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifasi amalga oshiriladi.

Bundan tashqari nazariy va amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish ta'limini tashkil qilishning asosiy shakllarini ochib berish, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, o'rta maxsus, kasb-hunar kollej ta'limini xo'jalik yuritishning yangi shakllarni o'qitish va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida masofaviy o'qitishni ishlab chiqishni, ishlab chiqarish amaliyotining maqsad va vazifalari, tashkil qilish, o'tkazish, rahbarlik qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishni, jamoaviy, guruhli, yakka tartibdagi shakllardan foydalangan holda dars ishlanmalarini tayyorlashni talab etadi. Ana shu sababli kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllarini ishlab chiqish va boshqarish modelini loyihalash zarur.

Kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari deganda – o'quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun o'quvchilar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek o'quv mashg'ulotlarining qurilish tarkibi tushuniladi.

Nazariy mashg'ulotlar deganda - mashg'ulotning ham jamoa, ham individual (yakka tartibda) turini o'z ichiga olgan, kasb ta'limi o'qituvchisining rahbarligida o'quv materialini faol, to'g'ri va ongli o'zlashtirilishini ko'zda tutgan o'quv-mehnat faoliyatining aniq tashkil qilinishi tushuniladi.

Amaliy laboratoriya - ishlari o'quvchilarga faqat turli xil uskunalar, asboblari, moslamalar bilan ishlashini o'rgatmay, balki o'lchovlar, kuzatishlar natijalarini ishlab chiqishni o'rganish hamda to'g'ri ilmiy xulosalar va umumlashmalar chiqarish imkonini beradi.

Kasb-hunar ta'limi darsi – o'quvchilarning barcha guruhlarini bir xil sharoitda, yagona didaktik vazifani bajarilishini ta'minlaydigan tashkiliy shaklidir

(masalan, o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonalari, o‘quv- ishlab chiqarish sexlari, o‘quv xo‘jaliklari va h.k.).

Ishlab chiqarish jarayoni shakllari - didaktik maqsadning aniqligi, ta’lim va tarbiya vazifalarining birligi, o‘quv materialini to‘g‘ri tanlash, o‘qitish modellarini maqsadga muvofiq tanlash, o‘quvchilarning mustaqilligi, darsning tashkiliy aniqligi va o‘quvchilar ishida xavfsizlikni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Ekskursiya – kasb-hunar ta’limi tashkil etishning shunday shakli, u orqali o‘quvchilar bevosita ishlab chiqarish sharoitida jihozlar bilan tanishib, texnologik va mehnat jarayonlarini tashkil etishni kuzatib boradi.

Masofaviy ta’lim – maxsus o‘qitish vositalari yordamida o‘qituvchi bilan bog‘lanish, shaxsiy jadval bilan o‘zi xohlagan joyda o‘qishi, o‘z ustida intensiv, mustaqil ishlashi lozim bo‘lgan, maqsadga yo‘naltirilgan bilim olish turi.

“Model” tushunchasi ilm-fanning ko‘p sohalarida qo‘llaniladi. Model – sxema, fizik konstruksiyalar, belgili shakllar va formulalar ko‘rinishida sun’iy hosil qilingan obyekt bo‘lib, u tadqiq qilinayotgan obyektga o‘xshash bo‘ladi, uning tuzilishini, xususiyatlarini, obyektning elementlari orasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlarni sodda va tushunarli tarzda aks ettiradi.

Kasb - hunar ta’lim metodalri deganda o‘quvchilarning texnik-texnologik bilimlar, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan o‘qituvchi, o‘quv ustasi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi.

Kasb - hunar ta’lim metodalri quyidagilarga asoslangan holda klasfikatsiyalanadi:

1. *Bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish vositasiga qarab* (og‘zaki, kitob va xujjatlar bilan ishlash, ko‘rgazmali va amaliy metodlar).

2. *Didaktik vazifalariga qarab* (bilimlarni hosil qilish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni qo‘llash, mustahkamlash, bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish metodlari).

3. *Ta‘lim oluvchilarning o‘quv faoliyatiga qarab* (reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.)

Umumiy xolda ta‘lim metodlarini 3 ta asosiy guruxga ajratish mumkin:

- O‘quv bilish va o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodi.
- O‘quv faoliyatiga qiziqtirish va rag‘batlantirish metodi.
- O‘quvchilar o‘quv faoliyatini samaradorligini nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodi.

O‘quv bilish va o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodiga – og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy, o‘qituvchi boshchiligida induktiv yoki deduktiv reproduktiv yoki produktiv yo‘nalishlardagi metodlar kiradi.

O‘quv faoliyatiga qiziqtirish va rag‘batlantirish metodiga – o‘quv bilish va o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o‘qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiradi.

O‘quv faoliyatiga qiziqtirish va rag‘batlantirish metodiga – o‘quv bilish va o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o‘qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiritilgan

O‘quv faoliyati samaradorligini va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodiga – og‘zaki, yozma va amaliy nazorat o‘z-o‘zini nazorat, hamda bilim darajalari bo‘yicha testlar o‘tkazish kabi metodlar kiradi.

O‘quv jarayonining eng muhim jihati ushbu metodlarning turlarga bo‘linishi emas, balki o‘qituvchining chuqur bilimga ega bo‘lishi, metodlardan unumli

foydalana olishi, ta'lim oluvchilarning o'quv hamda o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda mazkur metodlarni to'g'ri va o'rinli qo'llay olishdan iboratdir.

Ta'lim metodlari o'quv jarayonini samarali tashkil qilishga yordam beradi. Shunga ko'ra ularning uch jihatini ko'rishimiz mumkin: umumdidaktik, xususiy didaktik va xususiy metodik.

Umumiy didaktik jihat – o'zida obektiv mohiyatni, didaktik metodning imkoniyat va talablarini aks ettiradi, bu esa o'quv jarayoni davriga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

Xususiy didaktik jihat – metodning ta'lim jarayoni davrlarida qo'llash sharoiti hamda ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatini ifoda etadi.

Xususiy metodik jihat – metodlarning umum didaktik va xususiy – didaktik tavsifiga asoslanadi va alohida predmetlarni xususiy metodik jihatdan o'rganilishini ifoda etadi.

Umumkasbiy va kasbiy fanlarni o'rganish o'quv materialini *og'zaki bayon etish*, gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi, bunda mavzuni to'liq taqqoslaniladi, isbotlanib, misollar asosida tushuntiriladi. Bayon qilinayotgan material ta'lim oluvchilarning tushunishlari uchun qiyin bo'lgan, yangi ma'lumotlar berilayotgan, mehnat faoliyatini bajarilish yo'llarining tushuntirilib berilishi talab qilingan xollarda ***og'zaki bayon qilish*** metodidan foydalaniladi.

- aniq ilmiy – texnik mazmunning bo'lishi;
- bayon qilinishning mantiqiylik va ketma-ketligi;
- ta'lim oluvchilarga tushunarli va oson yetib boradigan bo'lishi;
- har bir bosqichda fikrning aniq va ravshanligi;
- o'quvchilarning e'tiboriva faolligini oshirishi.

Suhbat. Bu kasb ta'limining shunday usulidirki, unda o'qituvchi savollar yordamida ta'lim oluvchilarning ilgari o'qlashtirilgan bilimlari asosida ularni esga

tushiradi hamda mustaqil ravishda yangi bilimlar xosil qilishga undaydi. Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish savol-javob metodi orqali ham amalga oshiriladi. Bunday suhbat evristik suhbat deyiladi.

Suhbatning didaktik mohiyati o'qituvchi ta'lim oluvchilar oldiga savol-javoblar qo'yib, ularning mantiqiy manolari yechiladi va o'quvchilarda o'quv materialini bo'yicha aniq fikrlar hosil qilinadi. Bu orqali o'qituvchi o'quvchilarga oldin egallagan bilimlaridan, kuzatuvlaridan, hayotiy va ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanishga, ularni taqqoslashga, mantiqiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Suhbat metodiga qo'yiladigan talablar:

- o'quv materialining mazmuni mantiqiy to'g'ri tuzilgan bo'lishi shart; yangi o'quv materialini o'rganish jarayonida ko'proq texnik va texnologik xujjatlar mazmunini muhokama qilishning maqsadga muvofiqligi;
- suhbatni boshqa metodlar va o'quv ishlar turlari bilan qo'shib o'tkazish.
- Evristik suhbatda savollar keng qamrovli tuzilgan bo'lishi lozim. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:
- fanlarni taqqoslash, ularning mazmuni, dalillar va boshqalarni nazarda tutuvchi;
- ta'lim oluvchilarning turli vaziyatlarda o'z bilimlaridan foydalana olishlarini aniqlashi;
- mavzu mohiyatini tashhizli tushuntirish;
- isbotlash «ha» yoki «qarshi»ga dalil ko'rsatish;
- fanlararo bog'liqlikni o'rnatish.

Ta'lim oluvchilarning kitob va xujjatlar bilan ishlashi. Ilmiy va amaliy pedagogikada ta'lim oluvchilarning kitob bilan ishlashlarini bir qator metodik turlari ko'rsatilgan: tez o'qitish, konspekt olish, asosiy joylarni aniqlash va reja tuzish, misollar muhokamasi, nazorat savollariga javob va hokazolar. Biroq

texnika va texnologik kitoblar bilan ishlaganda mazkur usullarni to'liq qo'llash mumkin emas.

Texnik fanlar yuzasidan ta'lim oluvchilarning kitob bilan ishlashlari jarayonida texnika va texnologiya bo'yicha materialni, vazifani yaxshilab o'rganish kerak bo'ladi. Bu vazifalarni tablitga to'ldirish orqali ham o'rganish mumkin. Jadvalda quyidagi grafiklar bo'lishi kerak: mashinaning ahamiyati, mexanizmlari, qismlari, qismlarning vazifalari.

Reproduktiv mashq - bu tipdagi mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilar qurilmaning tuzilishi, materiali, asbob-uskunalar, yozma vazifalarini o'rganishadi. Reprodukativ mashqda chizma, sxema, grafik va diagrammalar muhokama qilinadi hamda ta'lim oluvchilar tomonidan ular bajariladi. Kasbiy fanlar bo'yicha texnik xujjatlar – stanok pasportlari va texnologik kartalarni o'rganish mumkin.

Badiiy mashq. Ta'lim oluvchilar bu turdagi mashqlarni bajarishda egallagan bilim va malakalaridan turli xil kombinatsiyalarda foydalanishadi, ya'ni oldiga qo'yilgan vazifalar yuzasidan mustaqil ravishda original javoblarini topishadi.

Badiiy mashq turlaridan biri **produktiv masalalarni hal qilishdir**, ya'ni, tanlash (asbob, ishlov berish turi, sozlovchi mexanizm), taqqoslash va baholash (ishning bajarilish yo'li, asboblarning qo'llanilishi, jarayonlar) ni aniqlashga bog'liq bo'lgan (texnik talab, aloqadorlik), turli xil texnik jarayonlarni tushuntirish. Bu turdagi mashqlar orqali o'rganilayotgan mashina, mexanizm, qurilmalarining sxemalari tuziladi. Ta'lim oluvchilar bu orqali ma'lumot va materiallarning ikkinchi darajalisidan asosiysini, keraksisidan keraklisini ajratib olishadi.

Izlanish mashqi – bu ham egallangan bilimlarni mashqlarda badiiy qo'llash usuli bo'lib, ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Izlanish mashqlar sirasiga yana konstruktorlikni ham kiritish mumkin. Ular ko'pincha bir tizimda olib borilib, sekin-astalik bilan ta'lim oluvchining mustaqil va texnik fikrlash qobiliyatini oshirib boriladi.

- konstruksiyaga o‘zgarishlar kiritilganda masalani hal qilish;
- konstruksiyada yetishmaydigan bo‘g‘in kamchiliklarini masalani hal etish orqali to‘ldirish;
- sxema bo‘yicha konstruksiya loyihasini tuzish;
- texnik talabga ko‘ra obektni mustaqil konstruksiyalash.

Tashhisli mashqlar. Ular 3 ta bosqichda yo‘lga qo‘yiladi.

Birinchi bosqichda o‘quvchilar – nuqsonlarning buzilish sabablarini o‘rganishadi, buzilishlar bo‘yicha jadvallar, vazifalar – kartochkalar tuziladi.

Ikkinchi bosqichda esa – ta‘lim oluvchilar turli vaziyatlardan chiqq olishni o‘rganishadi.

Tashhisli o‘qitishning oxirgi uchinchi bosqichida – tashhisli masalalarning yechilishini o‘rganishadi.

Insondagi tashqi olmi sezishining eng muhim organi – ko‘zdir. Olimlarning fikricha, 80% axborot miyaga ko‘z orqali uzatiladi. Ish operatsiyalarining 80% ko‘z orqali bajariladi. Ushbu dalillardan ko‘rishimiz mumkinki, ta‘lim jarayonida ko‘rgazmali metod katta ahamiyatga egaligini.

Umumtexnik va kasb ta‘limi fanlari bo‘yicha *ko‘rgazmali metod* tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino-videofilm, slayda, kinoproeksiya, kompyuter, meltimedia va boshqalar) jihozlar vositasiga qo‘llaniladi. Ko‘rgazmali metodning vazifalari turlicha bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi mavzu tushuntirishda yoki bir xil xollarda o‘rganilayotgan fan bo‘yicha aniq ko‘rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko‘rgazmali metoddan samarali foydalanish mumkin.

Insondagi tashqi olmi sezishining eng muhim organi – ko‘zdir. Olimlarning fikricha, 80% axborot miyaga ko‘z orqali uzatiladi. Ish operatsiyalarining 80% ko‘z orqali bajariladi. Ushbu dalillardan ko‘rishimiz mumkinki, ta‘lim jarayonida ko‘rgazmali metod katta ahamiyatga egaligini.

Umumtexnik va kasb ta'limi fanlari bo'yicha *ko'rgazmali metod* tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino-videofilm, slayda, kinoproeksiya, kompyuter, multimedia va boshqalar) jihozlar vositasiga qo'llaniladi. Ko'rgazmali metodning vazifalari turlicha bo'lishi mumkin. O'qituvchi mavzu tushuntirishda yoki bir xil xollarda o'rganilayotgan fan bo'yicha aniq ko'rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko'rgazmali metoddan samarali foydalanish mumkin.

Nazariy darslarda ta'lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, misol uchun darsliklar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar. Amaliy mashg'ulotlarda ular ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, chizmalar, asbob-uskunalardan foydalanadilar. Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Yordamchi vositalar buning aksi o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoprojektor kabilardir. Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni mahsulotlar, asboblardan va boshqalar dars paytida didaktik funksiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Metodlarni tanlashda quyidagi mezonlarga asoslaniladi:

- metodlarning didaktik qoidalarga mos kelishi shartidir.
- metodlar mazmunining ta'lim maqsad va vazifalarini ta'lim oluvchilarni tarbiyalash va o'stirish bilan mosligi
- metodlar mazmuni ta'lim mazmuniga mos kelishidir.

Mazmunlardan biri induktiv metod orqali yaxshi yoritib berilishi, boshqasi esa – deduktiv metod yordamida yoritib berilishi mumkin. Muayyan dars jarayonida muammoli izlanish metodini qo'llash, boshqa bir dars jarayoni uchun to'g'ri kelmasligi ham mumkin.

Metod tanlashning mezonlaridan biri o‘quv jarayonini tashkil qilish shakllari, umumiy guruh, zveno va yakka tartibdagi ishlar uchun ta’limning turli metodlaridan foydalanishning zarurligidir. Ta’lim metodini tanlashda o‘qituvchi o‘zi imkoniyatlari va pedagogik bilim darajasiga asoslangan holda ta’lim metodini tanlasa, bu orqali yuqori darajadagi o‘quv tarbiya natijalariga erishishi mumkin bo‘ladi.

Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida bu borada katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi yangi pedagogik texnologiyalar turkumiga kiruvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Kasb-hunar kollejlarda “Kompyuter grafikasi haqida ma’lumot va kompyuter grafikasi turlari” mavzusida dars ishlanma.

O’QUV MASHG’ULOTINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI MODELII.


O’quv soat- soat	O’quvchilar soni- ta
O’quv mashg’ulotining shakli va turi	Axborotli – ko`rgazmali, Amaliy mashg’ulot
O’quv mashg’ulot rejasi	1. Kompyuter grafikasining yaratilish tarixi 2. Kompyuter grafikasi haqida ma`lumot. 3. Kompyuter grafikasi turlari

<p>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</p> <p>Ta`limiy: O`quvchilarga kompyuter grafikasi tushunchasi. Kompyuter grafikasi turlari haqida bilimlarni shakllantirish.</p> <p>Tarbiyaviy: Kompyuter grafikasi turlaridan to`g`ri foydalanishni o`rgatish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: Bilim va ko`nikmalarni chuqurlashtirish</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ Kompyuter grafikasini o`rgatish; ✓ Kompyuter grafikasi dasturlari bilan ishlashni o`rgatish; 	<p>O`quv faoliyatining natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ Kompyuter grafikasidan foydalanishni ko`rsatish; ✓ Kompyuter grafikasui dasturlari bilan ishlash;
O`qitish metodlari	Klaster
Ta`lim vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar.
O`quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Kichik guruhlarda ishlash.
O`qitish shart-sharoiti	Proektor va kompyuterlar bilan ta`minlangan auditoriya
Qaytar aloqani usul va vositalari	Baholash mezoni asosida. Og`zaki so`rov, Amaliyot topshiriqlarining bajarilishi,

O`QUV MASHG`ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI.

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	O`quvchilar
I.Kirish bosqichi (10 daq.)	<p>1. Amaliy mashg`ulotining mavzusi, maqsadi va rejalashtirilgan o`quv natijalari, hamda uni tashkil etish rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>2. Rejani ekranga chiqaradi.</p> <p>3. O`quv faoliyatini baholash mezonlari ma'lum qilinadi.</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>E`tibor qaratadilar, savollar beradilar.</p>
II. Asosiy bosqich (50 daq.)	<p>2.1. Klaster metodi yordamida o`quvchilarning mavzuni qay darajada bilishlari aniqlanadi. Berilgan savollar asosida o`quvchilarning javoblari doskaga yozib boriladi. Javoblar muxokama qilinib mavzu yoritib beriladi. (1-ilova).</p> <p>2.3.Vizual materiallardan foydalangan holda ma`ruza materiallarini reja savollari bo`yicha izchillikda bayon qiladi; eng asosiylariga e`tibor qaratadi;</p>	<p>Berilgan savollar javob berishadi</p> <p>O`qiydilar.</p> <p>Tinglaydilar, savollar beradilar.</p> <p>Asosiy tushunchalarni muhokama qiladilar.</p> <p>Ma'lumotlarni</p>

	<p>berilayotgan ma'lumotlarni daftarga qayd etishlarini eslatadi.</p> <p>2.4. Mavzuni mustahkamlash maqsadida amaliy mashg'ulotning topshiriqlarini kompyuterda bajarishlarini aytadilar. (2-ilova).</p>	<p>daftarga qayd qiladilar.</p> <p>Texnika xavsizligi qoidalariga amal qilgan holda kompyuterda amaliy topshiriqlarni bajadadilar.</p>
<p>III. Yakuniy bosqich (20 daq.)</p>	<p>3.1. Amaliy mashg'ulotning topshiriqlarini bajarishga yakun yasaydi, o'quv faoliyati natijalarini umumlashtiradi, faol ishtirok etgan talabalarni baholash mezoni asosida rag'batlantiradi.</p> <p>3.2. Mavzuni yanada chuqurroq o'rganish uchun topshiriq beradi: 1. Kompyuter grafikasi dasturi qo'shimcha imkoniyatlarini o'zlashtirish beriladi.</p>	<p>Eshitadilar, aniqlashtiradi-lar</p> <p>Topshiriqni yozadilar</p>





KOMPYUTER GRAFIKASI HAQIDA MA'LUMOT. KOMPYUTER GRAFIKASI TURLARI.

Reja:

1. Kompyuter grafikasining yaratilish tarixi
2. Kompyuter grafikasi haqida ma`lumot.
3. Kompyuter grafikasi turlari

Kompyuter - mavjud axborotni grafik shaklga o'tkazishi mumkin, ular yordamida keyinchalik axborot taxlil kilinadi yoki bu axborotni boshkacha ko'rinishda takdim etish mumkin. Bularning barchasiga *kompyuter grafikasi* (*inglizcha «sotrutyer grarhiss»*) tufayli erishish mumkin.

«*Kompyuter grafikasi*» tushunchasi informatikada juda keng talkin kilinadi. Xorijiy adabiyotlarda bu bilan bir katorda yana «*mashina grafikasi*» (*inglizcha «tashipe grarhics»*) va «*mikrokompyuter grafikasi*» (*inglizcha «ticrosotrutyer grarhics»*) atamaları xam ko'llaniladi.

V. Giloyning fikricha, «*mashina grafikasi*» atamasi xisoblash mashinasi tomonidan grafik ob`ektlarni generatsiyalash, takdim etish, ishlab chikish yoki baxolash, u bilan manipulyatsiya kilish xamda grafik ob`ektlar va fayllarda bo'lgan nografik ob`ektlar o'rtasida alokalar o'rnatilishini bildiradi.

Mashina grafikasining dastlabki tizimlari birinchi rakamli kompyuterlar bilan birga paydo bo'lgan. Masalan, 50-yillarning boshida Massachusets texnologik institutining «Virlvind» kompyuteri elektron-nurli trubkalar (ENT)da joylashgan, unga birlashtirilgan displeyga ega edi. Ammo 1963 yilni kompyuter grafikasi asrining boshlanish yili deb xisoblash kabul kilingan, chunki o'shanda jaxonga interaktiv mashina grafikasining asosiy tamoyillarini o'z ichiga kamrab

olgan «Skatglad» tizimi takdim etilgan.

Axborotni grafik shaklda ishlab chiqish, taqdim etish, ularga ishlov berish, shuningdek grafik obyektlar va fayl-larda bulgan nografik obyektlar o'rtasida boglanish o'rnatishni informatikada *kompyuter grafikasi* deb atash qabul qilingan. Kompyuter grafikasi tushunchasi hozirda keng qamrovli sohalarni o'zida mujassamlashtirib, bunda oddiy grafik chizishdan to real borliqdagi turli tasvirlarni hosil qilish, ularga zeb berish, dastur vositasi yordamida xatto tasvirga oid yangi loyixalarni yaratish kuzda tutiladi. U multimedia muxitida ishlash imkoniyatini beradi.

Kompyuter grafikasi — bu, avvalo, keng tarqalib borayotgan dastur ta'minotidir, ya'ni kompyuter grafikasi mavjud va yangi yaratilayotgan dasturlarga tayanadi. U xatto dasturlarning uziga zeb berishda ham juda keng qo'llaniladi. Uning rivojlanishi jarayon-larning real uch ulchovli fazoda kdnday kechishini aniq tasvirlash (xatto xarakatdagi) imkoniyatini yaratdi. Shuning uchun hozirda shunday amaliy dasturlar paketlari mavjudki, ular yordamida ko'rilayotgan masalaning asosiy parametrinigina bergan xonda uning yechimi natijasi grafik shaklda olinishi mumkin.

Bu holda biz natijalarni ko'plab jadvallar shaklida olishdan kutulamiz va bunga intilish kerak.

Kompyuter grafikasi nafaqat ilmiy xodimlar, balki rassomlar, turli soda loyixachilari, reklama bilan shugullanadigan mutaxas-sislar, Internet sahifalarini yaratish, ukitish jarayoni uchun va boshqa sohalarda muhim rol uynamokda. Uning, ayniqsa, matbaa sohasida qo'llanilishi keyingi paytlarda rang-barang, suratli adabiyotlar, o'quv qo'llanmalari, badiiy asarlarning paydo bo'lishida yuksak bezash texnikasidan foydalanishni taqozo kilmokda. Diqqatni o'ziga jalb qiluvchi videoroliklar, Internet sahifalarini yaratishni kompyuter grafikasisiz tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi.

Kompyuter grafikasi uch turga bo'linadi:

Vektorli, fraktal va rastrli grafika. Ular o'rtasidagi asosiy farq nurning displey ekrandan o'tish usulidan iborat. Eslab qoluvchi elektron-nurli trubka (ENT) larga ega vektorli qurilmalarda nur berilgan trayektoriya buylab bir marta chopib o'tadi, uning izi esa ekranda keyingi buyruq berilgungacha saqlanib qoladi. Demak, vektorli grafikaning asosiy elementi — chiziqdir.

Vektorli grafika bilan ishlovchi dasturiy vositalar birinchi navbatda tasvirlarni yaratishga mo'ljallangan. Bunday vositalar reklama agentliklarida, dizaynerlik byurolarida va nashriyotlarda qo'llaniladi.

Fraktal grafika ham hisoblanuvchi grafika bo'lib, uning vektor grafikadan farqi shundaki, unda hech qanday ob'ektlar kompyuter xotirasida saqlanmaydi. Chunki tasvirlar tenglamalar yoki ularni sistemalaridan hosil qilinadi. Shuning uchun ham xotirada bunday tenglamalargina saqlanadi.

Tenglamalarga oid parametrlar o'zgartirilib tasvirlar hosil qilinadi.

Fraktal grafika matematik hisoblashlar asosida tasvirlarni avtomatik yaratish uchun qo'llaniladi. Shuning uchun ham uning asosi sifatida rasm, shakl, tasvir hosil qilishning dasturlash usuli tanlangan.

Bu grafika, odatda, turli jarayonlarni modellashtirish, tahlil qilish, turli qiziqtiruvchi o'yin dasturlarida qo'llaniladi

Rastrli grafika nuqtalar yordamida (qog'ozda), piksellar hosil qilinadi. Tabiiyki, nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa, unga asoslangan rasm, shakl, grafiklar shuncha aniq bo'ladi. Shu munosabat bilan ekranning hal qilish qobiliyati kiritilgan bo'lib, unda gorizont va vertikal yo'nalishlardagi nuqtalar soni muhim rol o'ynaydi va u ekranning hal qilish imkoniyati deyiladi.

Odatda, bunday ko'rsatkich 640x480, 800x600, 1024x768 yoki bulardan yuqori piksellarda beriladi. Tasvir o'lchovi hal qilish qobiliyati bilan bog'liqdir. Bu parametr dpi (dots per inch — nuqtalar soni zichligi) bilan ulchanadi. 15 dyuymli (1dyuym=2,54 sm) monitorda ekranda tasvir ulchovi 28x21 sm ni tashkil kiladi.

Buni hisobga olsaq 800x600 pikselli monitorda ekranni tasvirlash qobiliyati 72 dpi ga teng bo'ladi. Demak, kompyuter xotirasida rangli tasvir ko'p joy olishini tushunish kiyin emas. Misol uchun 10x15 sm li rasm taxminan 1000x1500 piksellardan iborat bo'ladi.

Agar xar bir rangli nuqtani tasvirlash uchun 3 bayt ketsa, bitta o'rtacha rasmning o'zi xotirada taxminan 4 mln bayt joyni egallaydi. Bunday ma'lumot, xususan, Internet saxifalarini yaratishda e'tiborga olinishi zarur. Shuning uchun xdm hozirda yaxshi multimedia dasturlarini, videorolikni yaratish uchun 128 Mbaytdan kam bo'lmagan va mos ravisha, tezligi katta bo'lgan kompyuterlardan foydalanish lozim.

Demak, rastrli grafika bilan ishlash uchun yuqori unumli kompyuter talab qilinadi.

Rastrli grafikaning kamchiligi sifatida shuni aytish mumkin-ki, tasvirni masshtablashtirish (kattalashtirish, kichiklashtirish) jarayoni natijasida nuqtalar ulchovi kattalashishi bilan tasvir aniq.-ligi yomonlashishi mumkin va, xatto, tasvir tanib bulmaydigan dara-jaga borishi mumkin.

Rastrli grafika elektron (multimedia) va matbaa nashrlarida keng qo'llaniladi. Nashrlarda turli illyustratsiyalarni yaratishda, odatda, skaner orqali olingan raqamli foto yoki videokamera (hozirda bunday fotoapparat va videokameralar keng tarkalmokda, ammo ularning baholari hozircha ancha kimmat) yoki rassom, loyihachi tomonidan tayyorlangan tasvirlardan foydalaniladi. Shuning uchun ham rastrli grafikada tahoir kdluvchi dastur vositalaridan keng foydalaniladi. Bu dasturlar, odatda, tasvirlarning aniqooq ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, Internetda rastrli grafika keng tarqalgan bo'lib, u bilan ishlash uchun esa ko'pincha **Adobe PhotoShop** dasturidan foydalaniladi.



Tayanch iboralari:

Grafika, rastrli grafika, piksellar (pixels), vektorli grafika, fraktal grafika, badiiy kompozitsiya, hisoblanuvchi grafika.



Savol va topshiriqlar:

1. Kompyuter grafikasi tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
2. Kompyuter grafikasi bilan kimlar shug`ullanadi?
3. Vektorli va rastrli grafikalarining asosiy elementlari nimalardan iborat?
4. Piksellar nima? Rastr-chi?
5. Qanday interfeyslarni bilasiz?



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari». Toshkent. O`qituvchi. 1997
2. Abduqodirov A.A., Xaitov A., Shodiev R. Axborot texnologiyalari. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun darslik. – T.: O`zbekiston, 2002
3. M.Aripov, A.Haydarov «Informatika asoslari» Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun Toshkent «O`qituvchi».

3. Kasb-hunar kollejlari ta'limida qo'llaniladigan dars va mashg'ulotlarni o'qitish tizimida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi XX asrning 50-yil boshlarida paydo bo'ldi. U amerikalik psixolog B.Skinner nomi bilan bog'liq. U materiallarning o'zlashtirilishini boshqarishning samaradorligini oshirishda axborotlarni qismmaqism uzatishning muntazam dastur asosida ko'rish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi.

N.Krauder tarmoqlangan dasturni ishlab chiqdi, unda nazorat natijalariga ko'ra ta'lim oluvchilarga mustaqil ishlar uchun turli xildagi materiallar tavsiya etiladi.

G.K.Selevko dasturlashtirilgan o'qitish deganda o'qitish uskunalari (E+M, programmalashtirilgan darslik, kinotrenajer va boshqalar) yordamida dasturlashtirilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini boshqarishni tushunadi. Dasturlashtirilgan o'quv materiali muayyan mantiqiy izchillikda beriladigan nisbatan katta bo'lmagan o'quv axborotlardan iborat bo'ladi.

V.P.Bespalko bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish namunasidagi pedagogik texnologiya tasnifini tavsiya etdi. O'qituvchi va ta'lim oluvchi (boshqariluvchi) munosabatlarini quyidagicha belgilaydi:

- berk- (o'quvchilarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);
- davriy (nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat);
- takror – (frontal) yoki yo'nalganlik (individuallik);
- qo'l (ogzaki) yoki avtomatlar (o'quv vositalari) orkali.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mexnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri xisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, xayotda o'z o'rnini barmkor qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental extiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

O'yin ijodiyliqi bilan ajralib turadi. O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni taxlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish extiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K.Selevko ta'biricha) quyidagilarni kamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin xarakatlari;
- predmetlarni, ya'ni xaqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida ko'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) – ijro soxasi.


O'yin o'ynagan vaqtimizda biz ba'zi bir funktsiyalarni bajaramiz:

- ko'ngil ko'tariladi (qiziquvchanglikni uyg'otadi);
- kommunikativlik munosabatning dialektikasini o'zlashtiradi;


- o'yinli, terapevtik, xar xil qiyinchiliklarni engadi;
- o'yin jarayonida xulk-atvorini o'zgartiradi;
- millatlararo kommunikatsiya: xamma insonlar birgalikda ijtimoiy madaniyat qadriyatlarini o'zlashtiradi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va xatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

“Muammoli vaziyat” metodi texnologiyasi.



“Venn” diagrammasi metodini qo'llash texnologiyasi.



“Rezyume” interfaol metodini amalga oshirish texnologiyasi.

Kichik guruhlarini shakllantirish
Mashg`ulotning maqsadi va o`tkazilish tartibi bilan tanishtirish, tarqatma materiallarni tarqatish va topshiriq berish.
Topshiriq bo'yicha ularning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, guruh fikrlarini yozma tarzda A-3 formatga bayon etadilar.
Taqdimotda guruhning yozma bayon etgan fikrlari o`qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi
O`qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so`rashi, ular fikrini aniqlash va o`z xulosalari bilan tanishtirish
Xulosa chiqarish va baholash

Xulosa.

Ushbu kurs ishida Kasb-hunar kollejlarda o'qitish tizimini yangicha metodlar va shakllar, Kasb-hunar kollejlarda informatika fanlariga berilgan katta etibor va imkoniyatlar to'g'risida tushuncha olib borilgan. Prezidentimiz takidlab o'tganlaridek “ Eng yangi zamonaviy o'quv vositalari bilan ta'minlangan ta'lim muassasalarida eskidan qolgan o'qitish usullarining davom etishiga mutlaqo yo'lqoyib bo'lmaydi” bu fikrning tub mohiyati shundan iboratki, eskicha tuzimda voz kechib yangicha o'qitish tizmiga xalqaro davlat standartlariga mos keladigan ta'lim timizlarini yo'lga qo'yish va “O'zbek” modeliga asosan o'quvchilarni vatan va xalq oldidagi burchlarini anglashi va hozirgi XXI asr Kompyuter texnologiya davrida har bir o'quvchi informatika fanlarini yaxshi o'zlashtirib va berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalashillari kerak va lozim.

Kurs ishini dolzarbligi ham shundan iboratki kasb-hunar kollej talabalariga informatika fanidan berilayotgan imkoniyatlardan to'liq va oqilona foydalanayotganini o'rganish va talim tizimida yani Kasb-hunar kollej talabalarini informatika fanidan qaydarajada fanga qiziqishlari va darsda qanday metodlar, shakllardan foydalanilayotgani o'rganilgan. Shu o'rinda gapiradigan bo'lsak Kasb-hunar ko'llejlari o'qituvchilari oldida ham katta mas'uliyat yotibdi yani o'qutuvchining talabalar uchun dars ishlanmalari qaydarajada ekanligi va talabalarni darsga qiziqitira olishi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Bu kurs ishim bo'yicha o'z tengdoshlarimga shuni takidlab o'tamanki, hozirgi kunda yoshlar uchun berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish va oldimizga qo'yilgan maqsadlarga olg'a harakat qilish, vatanimiz va jonajon xalqimiz uchun o'z bilim salohiyatimizni ishga solib mamlakatimizni rivojlantirishga va xalqaro rivojlangan mamlakatlar oldida hech kimdan kam emasligimizni ko'rsatib qo'yishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuter va axborotli texnologiyalarini ishlab chiqishni tashkil etishning 2001-2005 yillardagi taraqqiyot Dasturi, «Internet» xalqaro axborot tizimiga keng ko'lamli kirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (23 may 2001 yil, № 230).
2. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4-oktyabrdagi 400-sonli qarori.
3. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish modellari va ularning sinflari. // J. Fizika, matematika va informatika, – 2014. -№ 5. - B. 50-56
4. Abduqodirov A.A., Xaitov A., Shodiev R. Axborot texnologiyalari / Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2013. - 144 b.
5. Avazov SH. Amaliy kasbiy ta'lim metodikasi. Toshkent. – 2014 y. – 72 bet.
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2013. - 174 b.
7. Avazboev O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, 2013.
8. Begimqulov U. Masofaviy o'qitish va pedagogik ta'lim // Pedagogik ta'lim, - Toshkent, 2013. -№5. –B.19-21.
9. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'lim tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar. -T.: O'qituvchi, -2015. - 206 b.
10. Davlatov K.D. va b. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2014 y – 320 b.
11. Yo'ldoshev J.G`. O'zbekiston Respublikasi ta'limi – taraqqiyot yo'lida. - T.: O'qituvchi, 2015.
12. Yo'ldoshev J.G`., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: O'qituvchi, 2014. -102 b.

13. Kolyuga S.U. Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash kursi metodikasi. – T.: O’qituvchi, 2015.

\

Internet saytlari.

14. www. mail.ru

15. www. Ilm. uz. www.referat.ru

16. www. Ziyonet. uz. www.yandex.ru

17. www. Tosh DPU. uz. www.cer.u

Lug’at

O’zbekcha	Ruscha	Englishcha
Texnologiya	Технологик	Technology
Uslub	Стиль	Metod
Kompyuter	Компютер	Computer
Repraduktiv	Репрадуктив	Reproduction
Model	Модел	Model
Ekskursiya	Экскурсия	Excursion
Didaktik	Дитактик	Didactic
Grafika	Графикческий	Graphic
Texnik	Техник	Technical